

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

O.Shukurov	
Neym neologizmlar xususida	244
G'.Abduvaxobov	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiysi.....	250
N.Maxmudova	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatalishi.....	257
H.Davlatova	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
V.Abdurahmonov	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantik tasnifi.....	267
F.Temirova	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil	271
A.Mirzaev	
Ko`p tillilik va uning yangi tilni o`rganishga ta'siri	276

PEDAGOGIKA

B.Khodjaev, B.Baydjanov	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

ILMIY AXBOROT

M.Abdukamolova	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi	288
P.Ro'ziboeva	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xhash va farqli jihatlari	292
Sh.Uralova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxonanomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

FANIMIZ FIDOVYLARI

Ilimga baxshida umr	302
Sermaksul ilmiy ijod	303
Bibliografiya	305

AMALIY TILSHUNOSLIK: ELEKTRON LUG'ATLAR YARATISH KONSEPSIYASI**ПРАКТИЧЕСКОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ: КОНЦЕПЦИЯ СОЗДАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЕЙ****PRACTICAL LINGUISTICS: THE CONCEPT OF CREATING ELECTRONIC DICTIONARIES**

Abduvaxobov G'iyo'siddin G'a'yaratjon o'g'li¹

¹Abduvaxobov G'iyo'siddin G'a'yaratjon o'g'li

—Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasи
o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada an'anaviy lug'at va elektron lug'atdan foydalanishining ijobi hamda salbiy tomonlari mavjudligi haqida so'z boradi. Amaliy tilshunoslikda elektron lug'atga bo'lgan ehtiyoj dinamikasi o'sib borar ekan. Ularda ma'lum konsepsiyalarni shakllantirishga talab kuchayadi. Bu, ayniqsa, chet tillarini o'rganish jarayonida etolon tilda mavjud bo'lgan so'z shakkalining to'g'ri qo'llanilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada lug'atlarni alohida sohalarga ajratish, ularni elektron lug'at shakliga keltirish jarayonlari aks ettirilgan.

Аннотация

В статье речь будет идти о наличии положительных и отрицательных сторон использования традиционных и электронных словарей. По мере роста динамики потребности в электронном словаре в прикладной лингвистике возрастает спрос на формирование его определенных концепций. Это способствует правильному использованию словоформ, существующих в эталлонном языке, особенно в процессе изучения иностранных языков. Помимо этого в статье отражены процессы разделения словарей по отдельным сферам применения, приведения их к форме электронного словаря.

Abstract

The article will focus on the presence of positive and negative aspects of using traditional and electronic dictionaries. As the dynamics of the need for an electronic dictionary in applied linguistics grows, the demand for the formation of certain concepts of it increases. This contributes to the correct use of word forms that exist in the reference language, especially in the process of learning foreign languages. In addition, the article reflects the processes of dividing dictionaries into separate areas of application, bringing them to the electronic form. dictionary.

Kalitso'zlar: elektron, Elektron leksikografiya, denotatsiya, kompyuter lingvistikasi, algoritim, lug'at, korpus, analizator, kompyuter leksikografiysi, dastur.

Ключевые слова: электронный, электронная лексикография, денотат, компьютерная лингвистика, алгоритм, словарь, корпус, анализатор, компьютерная лексикография, программное обеспечение.

Keywords: electronic, electronic lexicography, denotation, computer linguistics, algorithm, dictionary, corpus, analyzer, computer lexicography, software.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda turli madaniyatlarning vujudga kelishi, tillar rivojlanishi va ularni o'zlashtirishga oid texnik imkoniyatlarning kengayishi jamiyat kishilari dunyoqarashini tubdan o'zgartirdi. Jamiyat tomonidan tilga alohida talab va ehtiyoj paydo bo'ldiki, bu ko'proq elektron lug'atlar tuzish masalasiga aloqadordir. Bu talab va ehtiyojlar leksikografik nazariyaning yangi bir bosqichga ko'tarilishiga olib keldi.

Yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida elektron lug'at tushunchasi lingvistika sohasida tor ma'noda, faqatgina kompyuter lingvistikasi doirasida tushunilib kelindi, soha muammolari faqat elektron texnologiyalar joriy etilishi bilan aloqador ekanligi haqidagi o'ta tor ilmiy qarashlar natijasida kompyuter leksikografiysi tilshunos olimlar tomonidan yetarlicha e'tiborga olinmadi. Aslida mazkur atama va u bilan bog'liq tushunchalar tilshunoslik sohasi rivoji va uning bugungi kundagi jamiyat ehtiyojlariga to'laqonli javob berishiga xizmat qiladi. Bunda amaliy tilshunoslikning leksikografiya sohasi katta o'zgarishlarga – takomillashuvga uchradi. Elektron lug'at tushunchasi tilshunoslikka bir qancha jiharlar bilan turlicha ta'sir ko'rsatdi.

Tilshunoslik qadimdan matematika fani bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan: ularning tub mohiyati bir o'zakka – mantiqqa borib taqaladi. Amaliy tilshunoslikning rivoji bu fikrni yana bir bor quvvatlash bilan birga yana-da samaraliroq qildi. Yangi paydo bo'lgan texnologiyalar matnlarni to'g'ridan-to'g'ri elektron formatga tarjima qilishni ta'minlash bilan jarayonni osonlashtirgan bo'lsa,

TILSHUNOSLIK

har bir tilning tabiatidan kelib chiqib, matnlarning o'ziga xos shakllantirilishini anglab yetishda foydalanuvchi mas'uliyatini oshirdi.

An'anaviy lug'atlar bilan elektron lug'at o'rtasida farqlar bo'lishi tabiiy. Bu farqlar u yoki bu lug'at shaklining ustunligini ko'rsatadi. Ya'ni bir jihat bilan an'anaviy lug'atlar afzallik qilsa, ikkinchi bir jihatdan elektron lug'atlardan foydalanish samaraliroq bo'ladi. Masalan, an'anaviy lug'atlardan foydalanish uchun moddiylik, unga erishish uchun lozim bo'lgan sharoit va amallar (lug'at olish uchun do'konga yoki kutubxonaga borish zarurati, uni topish, kutubxona bazasining quvvati yoki sotib olish uchun sarflanadigan moddiy qiymat) elektron lug'atlarda mutlaqo talab qilinmasligi pandemiya sharoitida foydalanuvchilarga juda qo'l keldi. Etalon til sir-asrorlarini bilish va chet tillarini o'rganishda elektron lug'atlardan foydalanish qulayligi yana bir bor o'z isbotini topdi. Shu o'rinda leksikografiya sohasi va uning yana-da samarali ishlash prinsiplariga to'xtalmoqchimiz.

Leksikografiya tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi sohadir. Lug'atlar til birliklarini jamlash, tartiblash, guruhlash va ma'nosini keng yoki tor planda izohlashga mo'ljallangan bo'ladi.

So'z ma'nosи va uning qo'llanilishi haqida tilshunoslikda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Tildagi so'zlarning barchasini bir lug'atda jamlash va to'liq (hech bir jihatini qoldirmay) izohlash qiyin va imkonsizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'zlar tilning boyligi, xazinasi bo'lish bilan birga shu tilda so'zlashuvchi xalqning ong mahsuli, idroki hosilasidir. Tilda so'zlar o'z tarixi va mazmuniga ega. Bugungi kunda o'zbek adabiy tiliga xos so'zlarning ma'no-mazmunini to'g'ri izohlash uchun xalq tarixini, uning rivojlanish yo'llarini o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki so'zlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tadi. Har bir so'zning o'z o'rni va izohini topishni ta'minlashda lug'atlarga talab yana-da oshadi. Yakob Grimm so'zlar bilan aytganda, "lug'at tilning boyligini oqlashi, uning so'z boyligini saqlab turishi va undan hamma foydalanishi uchun ochiq bo'lishi kerak. Lug'at xalqning ulug'vor yodgorligidir. Uning o'tmishi va hozirgi kunini aks ettiradi"[2]. Bu borada taniqli tilshunos L.V.Sherba "Men tilshunoslikda lug'atshunoslikdan ko'ra jiddiyroq sohani bilmayman" [1, 268] deb yozadi.

Fanda leksikografiya va lug'atshunoslik terminlari sinonim sifatida ishlatalidi. Ammo tilda ikki shakl, bir fan doirasida ikki termin qo'llanilar ekan, ularni albatta, farqlash zarur. Biz ushbu kichik ilmiy izlanishimizda leksikografiya terminini qo'llashni lozim topdik. Leksikografiyaning asosiy maqsadi va vazifasi har qanday tilning lug'at tarkibiga kirgan so'zlar, shuningdek, frazeologik birlıklarni to'plash, tartiblash va ma'nolarini izohlashdan iboratdir. So'z boyligi kam kishilar fikrlarini aniq ifoda etishga qiynaladi. Bu jamiyatdagи turli toifadagi kishilar o'rtasida, hatto ilm-fan bilan shug'ullanishni boshlagan mutaxassislar orasida ham kuzatiladi. Inson qanchalik bilimli bo'lmasisin, o'z qarashlarini so'zlar vositasida yetkazib berishga qiyinalishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun sohaning o'quv lug'atlariga ko'proq murojaat qilish kerak.

Leksikografiyada ro'y berayotgan tub o'zgarishlar tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyaga kirishuvi, hamkorlikda rivojlanishini taqozo etadi. Bunda yuzaga kelgan vaziyat va unda mavjud muammolarga yechim topishda tilshunoslikning texnika fanlari bilan aloqasi talab qilinadi. Tilshunoslikning texnika fanlari bilan aloqasi asosida yangi injenerlik lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi, elektron lingvistika atamalari paydo bo'ldi. Ushbu konsepsiya ostida tilni o'rab turgan bir qator muhim muammolar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Kompyuterlar orqali tizimli til o'rganish, mashina tarjimasi va leksikografiya masalalari bu sohadagi muhim masalalar sirasiga kiradi. Kompyuter leksikografiyasiga doir yangi ilmiy qarashlar filologiya fanlari doktori N.Abduraxmonovaning "Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti" monografiyasida o'z aksini topgan. Manbada hozirgi o'zbek tilida kompyuter leksikografiysi yutuqlari bilan bog'liq ko'plab lug'atlar yaratilgani, ammo ushbu lug'atlar haligacha kitob shaklida bo'lib, elektron lug'at holatiga keltirilmaganligi ta'kidlanadi [3, 59].

Tilshunos va informatik olim A.Pedron o'zining "Elektron leksikografiya" deb nomlangan asarida an'anaviy lug'atlar bilan yangi avlod lug'atlar o'rtasidagi farqni Venn diagrammasi asosida tushuntirib bergan[4,238]. Muallif X.Bergenxolzning elektron leksikografiya haqidagi qarashlariga murojaat qilib, yuqoridaqgi savollarga aniqlik kiritildi. Uning ta'kidlashicha, kompyuter leksikografiyasida elektron lug'atlarni ishlab chiqish jarayonida lug'atlardan foydalanuvchilar o'z

maqsadlariga tezroq erishadilar va elektron lug'atlarni yaratishda har ikki soha vakillari, ya'ni tilshunos va axborot texnologiyalari soha vakillari birdek ishtirok etadi deb hisoblaydi

Matematikaning tilshunoslik faniga tatbiqi har qanday tilshunosga lisoniy materialni tizimlashtirish, o'lchash va umumlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham Beryozin "Til sistema sifatida aynan matematikaning o'zidir. Matematika aniq fan bo'lib, formulalar munosabati orqali reallashadi. Til ham matematika singari aniqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq elementlarning o'zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi" deb hisoblaydi[5,4]. Tadqiqotchi A.M.Boboyev esa oddiy til va matematik til o'tasidagi farqlarni ilmiy asoslashga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, kundalik til (so'zlar, iboralar, jumlalar tili) to'rtta munosabatni – nom (axborotning moddiy tashuvchisi), denotatsiya (uning tashqi dunyoda aks etishi), tashqi ko'rinish (so'zning tushuncha bilan aloqasi), konnotatsiya (obyekt va hodisani his qilish) aks ettiradi. Matematik tilda bunday munosabatlar yo'q, bu yerda faqat ism va uning matematik ma'nosi yuzaga chiqishi haqida fikr yuritiladi[6,26-27].

Avtomatik ma'lumot berish, mashina tarjimasi, inson-mashina suhbatini tabiiy til materialining dasturlash tillari asosida kodlanishiga asoslanadi. Faqat ular orasida muayyan farqlanishlar mavjud, masalan, tabiiy tilda amalda bo'lgan polisemantik so'zlar dasturlash tilida alohida qiymat bilan kodlanadi. Rivojlanish shuni ko'rsatadiki, yaqin kelajakda an'anaviy tilshunoslikda mavjud bo'lgan bir qator munozarali masalalar kompyuter lingvistikasi orqali hal qilinishi mumkin bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik masalalarni avtomatlashtirishga ham katta urg'u berilgan. O'zbek tilshunosligida bu haqdagi ilmiy mulohazalar tadqiqotchi A.Rahimovning "Kompyuter lingvistikasiga kirish" o'quv-uslubiy qo'llanmasida uchraydi[5]. Tilshunoslikning kompyuter dasturlari bilan yaqin aloqadorlikdagi tadqiqotning yangi predmeti – bu mashinaning kibernetik miyasi aks ettira oladigan til strukturasini shakllantirishdir. Bu yerda talabning izchil yechilishi uchun hisoblash tizimi (algoritm) ishlab chiqiladi. Algoritm tili kompyuterlarda har qanday dasturlashni amalga oshirish uchun ishlataladi. Bunday dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va uni kompyuter lingvistikasi orqali tilshunoslikning barcha bo'limlariga aloqadordir, shu sababli uning talqinida tishunoslikning barcha bo'limlari tadqiqini qayta ko'rib chiqish zarurdir.

Ammo tadqiqotlarning ilk davrlarida tilshunoslar tilni matematik usullar orqali tadqiq etish fikrini yoqlamaganlar. Hatto XX asrning ko'zga ko'ringan tilshunoslari orasida ham bunday tadqiqotlar istiqbollariga ishonmaganlar topiladi.

Sohaning tilshunoslikka ta'siri va istiqboldagi rivoji borasida qarashlar turlicha. Jumladan, rus tilshunosi P.M.Alekseyev bu borada shunday fikrlaydi: "Leksikografiyada kompyuter texnologiyalari va matematik statistikadan foydalanish leksikografiyada yangi yo'nalish – statistik leksikografiyaning paydo bo'lishiga olib keldi"[7,85].

1979-yilda A.Axundovning "Matematik tilshunoslik" nomli kitobi nashr etildi. Aytish mumkinki, mazkur manba kompyuter lingvistikasi sohasida juda ko'p savollarga oydinlik kiritdi. Tadqiqotchi D.O'rino boyeva "O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati"ni yatardi. Bu lug'atda "Alpomish", "Ravshan", "Rustamxon" dostonlari matni statistik tadqiq etilib, unda jami 28499ta so'z-shakl elektron usulda statistik tahlil qilindi[5,57].

Kompyuter lingvistikasini rivojlantirish bo'yicha eng samarali izlanishlar olib borgan o'zbek olimlari: S.Muhammedov va S.Rizayevdir. S.Muhammedov gazeta va publisistlik matnlari ustida miqdoriy (statistik) metod asosida kuzatishlar olib borgan bo'lsa, S.Rizayev "O'zbek sovet bolalar adabiyoti tilining chastotali lug'ati"da o'zbek tilidagi 100 000 ta so'z-shakllarning bolalar adabiyoti tili leksikasining miqdoriy (statistik) tuzilishini tahlil qilgan. Bundan tashqari, olimning matematik lingvistika, mashina tarjimasi nazariyasining yuzaga kelishi, kompyuterlar va kompyuter dasturlarining yaratilish tarixi haqida ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e'lon qildi. 2009-yilda esa izlanishlari natijasida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi[8].

So'nggi yillarga kelib, ayna o'zbek tilshunosligida soha bo'yicha yirik monografik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ular qatoriga N.Abdurahmonova, Sh.Gulyamova muallifligidagi ilmiy va amaliy ishlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Kompyuter lingvistikasi sohasida o'zbek tilshunosligining tadrijiy taraqqiyoti mashina tarjimasi, matnlarni rasmiy tahlil qilish, turli lug'atlarni tuzish va boshqalar bilan bog'liq. Alohida ta'kidlash lozimki, yangi davr tilshunosligi soha masalalari yechimiga aniq fanlar mutaxassislarining yana-da ko'proq jalb qilinishi bilan xarakterlidir. Til materialini tadqiq etish bilan bir paytda filologiya

TILSHUNOSLIK

sohasida ilmiy daraja oluvchi mutaxassislar soni ham ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yilda N.Abduraxmonova "O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari" mavzusidagi filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida kompyuter texnologiyalarining til rivojiga va, o'z navbatida, til hodisalarining kompyuter texnologiyalariga ijobjiy ta'siri orqali qator ilmiy yutiqlar qo'lga erishilishi alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, 2022-yilda Sh.Gulyamova tomonidan "O'zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari" mavzusidagi filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasida o'zbek tili omonimlar lug'atini takomillashtirish va uning semantik analizatordagi o'rni masalasi ilmiy asoslandi.

Umuman, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi unga zarracha zarar yetkazmaydi, aksincha, uning jadal rivojlanishiga olib keladi.

"Elektron lug'at" tushunchasi tilshunoslik fanida so'nggi yigirma yil mobaynida paydo bo'lgan atamadir. "Kompyuter leksikografiysi" atamasi esa nisbatan ilgari paydo bo'lgan. Mazkur tushunchaning ilmiy talqini Y.N.Marchukning 1976-yilda nashrdan chiqqan "Hisoblash leksikografiysi", E.V.Vertelning 1984-yilda nashr qilingan "Mashina leksikografiysi", O.A.Kazakevichning 1985-yildagi "Avtomatlashtirilgan leksikografiya", V.V.Markovkining 1990-yilda yaratilgan "Kompyuter leksikografiysi" nomli darslik va o'quv qo'llamalarida bayon etilgan. Xususan, Y.N.Marchuk ushbu atamalarni "Kompyuter lingvistikasi" sarlavhasi ostida umumlashtirdi va tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal qilish zamonaviy dasturiy yo'naltirilgan kompyuterlar yordamida bevosita muhokama qilinishini ta'kidladi. Q.M.Mandrikova esa "hisoblash leksikografiysi", "hisoblash mashinasi" va "avtomatik leksikografiya" atamalarining bir tushuncha ekanligini va ularning mohiyatida bitta vosita – kompyuter mavjudligini ta'kidlaydi. U "kompyuter leksikografiysi" tilshunoslikning alohida sohasi sifatida, leksikografiyaning yangi ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish lozim, degan xulosaga keladi. Ushbu fanning mazmuni har xil turdag'i kompyuter lug'atining nazariy va amaliy masalalarining mavjudligi, shuningdek, ushbu muammo bilan bog'liq barcha vazifalarni nashr etishdir deb hisoblaydi.

V.V.Dubichinskiy o'zining "Rus tili leksikografiysi" nomli asarida bugungi kunda kompyuter leksikografiysi oldida turgan muammolar haqida fikr yuritib, ularni hal etishda quyidagi asosiy vazifalarni belgilaydi:

1. Mavjud lingvistik nazariya va qarashlarning rivojlanishini hisobga olgan holda leksik va terminologik birliklarning betarafligini ta'minlash;
2. Kompyuter lug'atining normal va standart rivojlanishi;
3. Adekvatlik mavjud lug'atlarda qanday ta'riflangan bo'lsa shunday berilganligiga e'tibor qaratish;
4. Ilmiy tadqiqot va ta'l'im sohasidagi mavjud kompyuter lug'atlarini mustaqil nashr etishni ta'minlash.

Uning fikricha, kompyuter leksikografiysi doirasidagi ishlarning bugungi holati ma'lum bir til birliklaridan foydalanilgan hollarda o'zgarishini, ularga ko'p yo'nalishli murojaat qilish uchun matn va matn majmualarini tuzishni belgilaydi. Kompyuterlashtirish nafaqat leksikografiya uslubini o'zgartiradi, balki ularning faolligi va samaradorligini oshiradi, an'anaviy leksikografiyada amalgaga oshirib bo'lmaydigan yangi vazifalarni belgilashga imkon beradi[9,350-355].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sон farmoniga ko'ra yangi avlod o'quv lug'atlari yaratish samaradorligi tanqidiy-tahliliy o'rganib chiqilmoqda. Maskur amaliy jarayonda muayyan konsepsiyaning mavjud bo'lishi va amal qilinishi sohaga oid muammolarni hal qilish va tizimli ijobjiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. Shu ma'noda, tanlangan mavzu yangi avlod lug'atlarini yaratish ishlari shu yo'nalishdagi konsepsiylar ishlab chiqish bilan boshlanishi maqsadlidir.

1980-yillar boshlarida jahonda kompyuter lingvistikasi assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, mazkur assotsiatsiya sohaga oid qator muammolar yechimi bilan shug'ullanadi. Sohaning fundamental masalalari A.S.Gerda, V.M.Andriushenko, Y.N.Marchuk, I.I.Ubina, S.V.Merkulova, V.V.Morkovkin, Q.M.Mandrikova kabi taniqli leksikograflar tomonidan muhokama qilindi. [10, 62-63]

Ilk ma'lumotlar ta'minoti asosida yaratilgan lug'atlar 1956-yilda AQShda yaratilib, elektron ma'lumotlar bazasi asosida ma'lum bir sohada qo'llaniladigan lug'atlar yaratildi. Ulardan eng mashhuri 1996-yilda yaratilgan "Webster's English Dictionary" elektron lug'atidir.

Bundan tashqari lug'atlarni kompyuterlashtirish haqidagi qarashlarni L.Lipkaning asarlarida topish mumkin. U 1984-yilda AQShda Edmund Weiner Oksford ingliz lug'atini kompyuterlashtirish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olganini qayd etadi. Hozirgi kunda bu lug'atlar CD-romlarda ham, Internetda ham mavjud. Oksford ingliz tili lug'ati 1988-yilda birinchi kompak disklarga yozilgan lug'at hisoblanadi. Bugungi kunda lug'atlar avtomatik dasturda birma-bir qayta ishlanadi. Lug'at kompilyatori kompyuter yordamida lug'atning leksik bazasini tekshirishi mumkin. Bu davrni majoziy ma'noda "kompyuterlar asri" deb atash mumkin. Birinchidan, kompyuterlardan foydalanish leksikograflarbing ishini avtomatlashtrish vositasi sifatida qaraldi. Kompyuter leksikografiyasining ko'pgina afzalliklari bor. Kompyuterlardan foydalanish har qanday usulda leksikografik material to'plash, so'zlar chastotasini oson aniqlash, rasmlar chizish, tasvirlangan ko'chirma gaplar yaratish, so'z etimologiyasini aniq va ko'p vaqt sarflamay topish va boshqa shu kabi imkoniyatlarni beradi. Bugungi kunda yuqorida sanalgan ko'rinishdagi elektron lug'atlarga misol tariqasida Merriam Webster, Oxford Dictionary, Cambridge Dictionary, Azer.Dict, Polyglot, Dilmanc, ABBY Lingvo 12, Multilex Delux 6.4, Context 7.0, Multitran 3.44, VER-Dict 2.0 Gigant kabilarni sanab o'tish mumkin.

O'zbek tilining yangi avlod lug'atlari yaratilishi, bir so'z bilan aytganda, yuqorida ko'rsatilgan Farmonda nazarda tutilgan maqsadlarga xizmat qiladi. Tadqiqodning amaliy natijasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantish jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan "Yangi avlod o'quv lug'atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish" loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan o'zbek tilining omonim, sinonim va paronimlar lug'ati mobil versiyalari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Ushbu lug'atlarning web shakli bugungi kunda tilshunos.com sayitida mumtazam to'ldirib borilmoqda.



Yangi avlod o'quv lug'atlari - Omonimlar lug'ati

[Bosh sahifa](#) [Omonimlar](#) [Loyha haqida](#) [Mualliflar](#) [Bog'lanish](#)

Sarvarbek Azimov ▾

Omonimlar jadvali

Nº	Omonim	Til	Turkum	Ma'no	Havola
3	Absolut	Lotin	Ot	Borliqning doimiy, o'zgarmas ilk asosi (ruh, g'oya) – idealistik filosofiyada; xudo – ilohiyotda	
4	Avra	Tojik	Ot	Ko'rpa-to'shakning, to'nning yuza tomoni	
5	Avral	Ingлиз	Ot	Kemaning barcha shaxsiy tarkibi qatnashgan holda bajariladigan umumiy ish	
6	Agent	Lotin	Ot	Biror voqeа-hodisani ro'yobga keltiruvchi sabab.	
7	Agent	Lotin	Ot	1. Biror muassasa yoki kishi topshirig'i (vakolati) bilan ish olib boruvchi shaxs, vakil 2. Biror davlat razvedkasining maxfiy xodimi, shpion, diversant.	
8	Adash	Tojik	Ot	Ismi boshqa bir kishining ismi bilan bir xil kishi	

TILSHUNOSLIK



Yangi avlod o'quv lug'atlari - Omonimlar lug'ati

[Bosh sahifa](#) [Omonimlar](#) [Loyiha haqida](#) [Mualliflar](#) [Bog'lanish](#)
[Sarvarbek Azimov ▾](#)
"Absolyut" omonimi haqida batafsil ma'lumot

Omonim	Absolyut
Ma'nosi	Borliqning doimiy, o'zgarmas ilk asosi (ruh, g'oya) – idealistik filosofiyada; xudo – ilohiyotda
Kelib chiqishi	Lotin tilli
So'z turkumi	Ot so'z turkumi
Uslubi	Ilmiy uslub
Namunalar	

Bazaga kiritdi:

Sarvarbek Azimov

 Tahrirlash

 O'chirish
XULOSA

Global Internet leksikografiya faniga o'z ta'sirini o'tkazib, elektron lug'atlar jarayoni uchun qulay sharoit yaratdi. Kompyuter texnologiyalari lug'at tuzish ishlarni tezlashtirdi, lug'atlar bilan ishlashni osonlashtirdi. Internetning ta'siri natijasida lug'atlar o'z shaklini butunlay o'zgartirib yubordi. Lug'atlar kompyuter lug'atlari va elektron lug'atlar nomi bilan ishlay boshladi. Kompyuter lug'atlari va elektron lug'atlarning farqi juda katta. Bu asosan qidiruv funksiyasi cheklanganligida, so'rovga javob bermasligi, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqada bo'imasligi va texnik funksiyalarga ega emasligida ko'rindi. Elektron lug'atlar asosan an'anaviy lug'atlardan foyda ko'radi, ammo bu yerda ishlash bosma lug'atlarga qaraganda ancha oson. Elektron lug'atlarda qidirish cheklanganmagan, so'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan va foydalanuvchi talabiga to'la javob beradigan qabul qiluvchiga ega. Elektron lug'atlarning paydo bo'lishi an'anaviy lug'atlarning shakli va mazmunini o'zgartirdi. Katta hajmdagi lug'atlar allaqachon elektron vositalarga (CD, Fleshka) o'tkazilgan. An'anaviy lug'atlardan farqli o'laroq, elektron lug'atlarda asosiy ish nafaqat so'zlarning alifbo tartibida, balki elektron lug'atlarda so'z va iboralarni tabaqa lashtirilgan sanab o'tish, ularni misollar bilan tushuntirish, keng lug'at yozuvlari, eng so'nggi multimedia elementlari bilan zamon talablari asosida taqdim etilgan. Ya'ni so'zlarning elektron lug'atlarda ifodalaniishi rangli, obrazli, grafik, tovushli va videotasvirlar bo'lishi mumkin. Elektron lug'atlarda so'zlarning izohi til me'yorlariga muvofiq berilishi kerak. Lug'atda so'zning ma'nosini ochib berishda kontekst va situatsion ma'nolar, omonimlar, sinonim va antonimlar, frazeologik birikmalar, idiomalardan foydalanish mumkin. Lug'at imkoniyatlari keng bo'lib, matnlarni turli tillarga tarjima qilish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Л.В.Щерба. Языковая система и речевая деятельность [Language system and speech activity]. Ленинград, Наука, 1974. (. L.V. Shcherba. Language system and speech activity)
2. J. Grimm u. W. Grimm, Leipzig, Deutsches Wörterbuch von 1893. – bet 320 (Дж. Гримм и. В. Гримм, Лейпциг, Deutsches Wörterbuch von)
3. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti [Linguistic database of machine translation]. – T.:2018. (Абдурахманова Н. Лингвистическая гарантия машинного перевода)
4. Pedro A. Fuertes-Olivera., Bergenholtz H. E-Lexicography. The Internet, Digital initiatives and Lexicography. London/New York: Continuum. 2011. – bet 341 (Педро А. Фуэртес-Оливера., Бергенхольц Х. Электронная лексикография. Интернет, цифровые инициативы и лексикография. Лондон/Нью-Йорк: Континум.)
5. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari [Basics of computer linguistics]. – T.: Akademnashr, 2011. (Рахимов А. Основы компьютерной лингвистики)
6. Boboyev A.M. Tilshunoslikka kirish [Introduction to Linguistics]. – Baku.: Maorif, 2004. (Бобоев А.М. Введение в лингвистику)
7. P.M. Statistik leksikografiya Алексеев П.М. Статистическая лексикография [Statistical lexicography]. – Ленинград. 1975. (Alekseev)
8. Rizayev S. Kibernetika va tilshunoslik [Cybernetics and Linguistics]. – T., O'zbekiston, 1976 (Ризаев С. Кибернетика и лингвистика)
9. Дубчинский В.В. Лексикография русского языка [Lexicography of the Russian language]. – М., Наука, 2008. (Dubichinskiy V.V. Rus tilining leksikografiyasi)
10. Рублева О.С. Слова в электронном словаре [Word in electronic dictionary]. – Тверь, 2010, (Rubleva O.S. Elektron lug'atdagi so'zlar)

(Taqrizchi: A.Mamajonov – Filologiya fanlari doktori, professor)